



IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI SOXTA XABARLAR VA ULARGA NISBATAN QONUNIIY CHORALAR

Xalimjonova Inobatxon

Andijon viloyati Yuridik texnikumi 1 - bosqich Yuridik xizmat 144-guruh talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlarda tobora soxta xabarlar, turli xil behayo rasmlar ko'payib bormoqda. Ushbu maqolada soxta xabarlarining jamiyat hayotiga ta'siri, u bilan bog'liq bo'lgan xavflar hamda uni tarqatgan shaxslarga nisbatan belgilangan qonuniy choralar tahlili qilindi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan normalar va ularning amaliy ahamiyati ko'rib chiqildi. Maqola aholining axborot madaniyatini oshirish, xabarlarini tekshirgan holda tarqatish zarurligini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Soxta xabarlar, feyk axborot, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, qonunchilik, javobgarlik.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi. Ular nafaqat muloqot vositasi, balki axborot olish va tarqatishning eng tezkor maydoniga aylangani sababli jamiyat ongiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, internet maydonida tekshirilmagan yoki ataylab buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning ko'payishi jiddiy ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Soxta xabarlar odamlar orasida vahima uyg'otishi, noto'g'ri qaror qabul qilishga undashi yoki jamiyatdagi barqarorlikka putur yetkazishi bilan xavflidir.

Asosiy qism

Ijtimoiy tarmoqlardagi soxta xabarlarining eng yomon tarafi - ularning juda tez tarqalishidir. Bir foydalanuvchi tomonidan yuborilgan yolg'on ma'lumot qisqa vaqt ichida minglab odamlarga yetib boradi. Yuqori tarqalish tezligi esa jamiyatda ishonchsizlik, ruhiy tushkinlik yoki asossiz vahima paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ba'zan bunday yolg'on xabarlar iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka ha ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlarda tobora soxta xabarlar, turli xil behayo rasmlar ko'payib bormoqda. Ushbu maqolada soxta xabarlarining jamiyat hayotiga ta'siri, u bilan bog'liq bo'lgan xavflar hamda uni tarqatgan shaxslarga nisbatan belgilangan qonuniy choralar tahlili qilindi. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan normalar va ularning amaliy ahamiyati ko'rib chiqildi. Maqola aholining axborot madaniyatini oshirish, xabarlarini tekshirgan holda tarqatish zarurligini yoritishga qaratilgan.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, haqiqatga mos kelmaydigan, odamlar orasida qo'rquv uyg'otuvchi yoki jamoat tartibini buzishga qaratilgan xabarlar tarqatish ma'muriy javobgarlikka asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida bu borada aniq moddalar mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi - ijtimoiy tarmoqlarda tartibni saqlash va axborotning ishonchliligini ta'minlashdir. Agar soxta xabar jiddiy oqibatlariga olib kelsa, jinoyat ishlari qo'zg'atilishi mumkin.



Shu bilan birga, qonuniy choralar jamiyatni himoya qilish bilan birga, axborot madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Chunki har bir foydalanuvchi xabarni tarqatishdan avval uning to'g'riligini tekshirishga, rasmiy manbalardan tasdiq olishga mas'uldir. Axborot savodxonligi - zamonaviy davrning eng zarur ko'nikmalaridan biri bo'lib, aynan shu soxta xabarlarining oldini olishda muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta xabarlar jamiyat uchun jiddiy tahdiddir.

O'zbekiston qonunchiligida belgilangan ma'muriy va jinoiy choralar bu hodisaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Biroq eng asosiy masala - har bir foydalanuvchining axborotga ongli, mas'uliyatli munosabatda bo'lishidir.

Toza va ishonchli axborot muhiti har birimizning hushyorligimiz, madaniyatimiz va qonunga hurmatimiz natijasi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonun
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
4. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi" Qonun
5. Rasmiy manbalar; O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Kiberxavfsizlik markazi materiallari.